



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING QARORI

---

**Kattaqo'rg'on t., A.Navoiy k., 1-uy.**

2022 - yil 27 - yanvar

11-7-96-Q/22

Kattaqo'rg'on tuman hokimligi

## **Kattaqo'rg'on tumani hokimligi boshqaruв apparatining tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-sonli qarori hamda Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 7-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-sonli Qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 7-7-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-sonli Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga muvofiq 2022-yilning 1-fevralidan tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinosari lavozimi tugatilib, qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinosari lavozimi joriy etilsin.

3. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Raximov), tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (T.Jumanazarov)larga o‘n kun muddatda tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining funksional vazifalarini qayta ko‘rib chiqib, tegishli hujjatlar loyihibarini tasdiqqa kiritish vazifasi yuklansin.

5. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimining o‘rinbosari (L.Raxmonov) Kattaqo‘rg‘on tumanida Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-76-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 7-7-0-Q/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashga shaxsan mas’ul ekanligi belgilansin.

6. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimligining Tashkiliy-kadrlar guruhi (T.Jumanazarov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev) o‘n kun muddatda mazkur qaror va tuman hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini o‘rnatilgan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashi tasdig‘iga kiritilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.


Tuman hokimi v.b.



J.Nasriddinov

Каттақўрғон туман ҳокимининг  
2022 йил 27 январдаги  
11-7-96-Q/22-сон қарорига  
1-илова

## Kattaqo'rg'on tumani hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasi



\*Tuman hokiminining o'rribbosari maqomiga tenglashtirilgan, ushbu shtat birligi tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hisobidan saqlanadi.

\*\*Tuman hokiminining o'rribbosari maqomiga tenglashtirilgan.

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – **30 nafar**.

Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi boshqaruv xodimlari soni – **5 nafar**.

Har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchilari soni – **69 nafar**.